



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

*2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari **18 959** tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **15 826** ta.

Shuningdek, ushbu davrga **32 315** ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,1** foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1- oktabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 659 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Jizzax shahri (822 taga), G'allaorol tumani (413 taga) va Sharof Rashidov tumanida (395 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni qishloq va o'rmon xo'jaligida – 1 027 taga, savdo – 925 taga va sanoat – 810 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 18 959 tani tashkil etdi, ulardan 15 912 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 27,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,4 foiz, sanoat – 12,9 foiz, qurilish – 6,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahrida – 25,7 foiz, tumanlardan Sharof Rashidov – 13,2 foiz, G'allaorol – 9,4 foiz, Zomin – 9,1 foiz va Baxmalda – 7,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 583 ta bo'lib, shundan:

- mikrofimalar va kichik korxonalar 3 568 ta;
- yirik korxonalar 15 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 15 912 tani tashkil etdi, ulardan 15 826 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,2 foiz, sanoat – 15,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,5 foiz, qurilish – 8,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,5 foiz, tashish va saqlash – 2,3 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, boshqa turlari – 10,1 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 245 tadan 265 taga (o'sish 20 taga), axborot va aloqa – 79 tadan 91 taga (o'sish 12 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (26,1 foiz), Sharof Rashidov (13,7 foiz), G'allaorol (9,5 foiz), Zomin (8,9 foiz) va Forish (7,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil 1- oktabr holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Forish (17,7 foiz), Arnasoy (12,0 foiz) va Baxmal (10,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

3 123



15

Baliq ovlash va akvakultura

O'rmonchilik va yog'och tayorlash

162



(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	662
Sh.Rashidov t.	376
G'allaorol t.	271
Zomin t.	246
Baxmal t.	140
Zarbdor t.	134
Paxtakor t.	129
Forish t.	127
Do'stlik t.	100
Mirzacho'l t.	78
Arnasoy t.	76
Zafarobod t.	67
Yangiobod t.	48

Yillar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 23,0 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 27,6 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Bino va inshootlar qurish

635

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

295

Fuqarolik obyektlarini qurish

355

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 5 279 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 25,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,7 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 28,4 mingtaga yetib, ularning 28,2 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,4 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 91,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	374
Sh.Rashidov t.	212
Zomin t.	102
G'allaorol t.	97
Baxmal t.	71
Paxtakor t.	70
Zarbdor t.	62
Forish t.	49
Do'stlik t.	48
Mirzacho'l t.	44
Arnasoy t.	27
Yangiobod t.	26
Zafarobod t.	22

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 70,4 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 17,6 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 12,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	110
Paxtakor t.	19
Baxmal t.	17
Sh.Rashidov t.	17
Arnasoy t.	15
G'allaorol t.	13
Zomin t.	10
Forish t.	7
Zarbdor t.	7
Zafarobod t.	6
Do'stlik t.	4
Mirzacho'l t.	4
Yangiobod t.	4

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	116	40	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	22	48	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	6	1	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 337 ta yoki 1,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,6 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;



yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 5,3 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,1 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	168
Zomin t.	33
G'allaorol t.	33
Sh.Rashidov t.	21
Baxmal t.	18
Paxtakor t.	14
Forish t.	11
Zarbdor t.	10
Mirzacho'l t.	8
Yangiobod t.	7
Do'stlik t.	7
Zafarobod t.	4
Arnasoy t.	3

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Jizzax sh.	136
Sh.Rashidov t.	72
Paxtakor t.	24
Zomin t.	23
Baxmal t.	20
G'allaorol t.	18
Zarbdor t.	17
Arnasoy t.	13
Mirzacho'l t.	13
Do'stlik t.	12
Forish t.	7
Yangiobod t.	6
Zafarobod t.	6

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 1,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 75,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 22,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

11 938

mas’uliyati cheklangan jamiyat

75,0

2 280

xususiy korxonalar

14,3

1 468

oilaviy korxonalar

9,2

16

aksiyadorlik jamiyati

0,1

210


boshqalar

1,3

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	650
Zomin t.	294
Sh.Rashidov t.	293
G'allaorol t.	256
Forish t.	253
Baxmal t.	237
Arnasoy t.	235

Zarbdor t.	189
Do'stlik t.	127
Mirzacho'l t.	102
Paxtakor t.	99
Yangiobod t.	90
Zafarobod t.	73

(2024- yil oktabr holatiga)


Amaldagi 15 912 mingta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- oktabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 11 938 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,9 foiz, sanoat – 14,7 foiz, qurilish – 8,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,9 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	3 480
Sh.Rashidov t.	1 771
Zomin t.	988
Baxmal t.	969
G'allaorol t.	895
Forish t.	776
Zarbdor t.	627


Arnasoy t.	538
Do'stlik t.	479
Paxtakor t.	458
Mirzacho'l t.	417
Zafarobod t.	297
Yangiobod t.	243

(2024- yil yanvar-avgust holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


G'allaorol t.	110
Paxtakor t.	54
Zafarobod t.	31
Jizzax sh.	21
Zarbdor t.	14
Arnasoy t.	9
Zomin t.	9

Yangiobod t.	9
Sh.Rashidov t.	7
Forish t.	4
Do'stlik t.	2
Baxmal t.	1
Mirzacho'l t.	1

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan G 'allaorol – 427 ta, Forish – 349 ta, Jizzax shahrida – 304 ta, Zomin – 225 ta va Paxtakorda – 191 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 888 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 478 ta, sanoatda – 272 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 213 ta.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	427
Forish t.	349
Jizzax sh.	304
Zomin t.	225
Paxtakor t.	191
Sh.Rashidov t.	127
Yangiobod t.	120

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




Baxmal t.	103
Zarbdor t.	99
Zafarobod t.	98
Mirzacho'l t.	90
Arnasoy t.	89
Do'stlik t.	58

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	123
Sh.Rashidov t.	83
Zomin t.	52
G'allaorol t.	43
Baxmal t.	30
Zarbdor t.	24


Paxtakor t.	14
Yangiobod t.	9
Arnasoy t.	6
Do'stlik t.	6
Mirzacho'l t.	6
Zafarobod t.	6
Forish t.	1

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 1 468 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 34,2 foiz, savdo – 30,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahri – 22,8 foiz, Sharof Rashidov – 17,6 foiz, G'allaorol – 11,9 foiz va Zomin tumanlarida – 13,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	335
Sh.Rashidov t.	259
Zomin t.	191
G'allaorol t.	175
Paxtakor t.	145
Zarbdor t.	91
Baxmal t.	68

Do'stlik t.	55
Zafarobod t.	51
Forish t.	32
Mirzacho'l t.	27
Yangiobod t.	22
Arnasoy t.	17

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

20

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 94,9 foizini tashkil etadi



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Zarbdor t.	7
Do'stlik t.	4
G'allaorol t.	3
Yangiobod t.	2
Sh.Rashidov t.	2
Arnasoy t.	1
Paxtakor t.	1



Ushbu bo'limning eng muhim yo'nalishlari yog'och tayyorlash va o'rmon bo'lmagan o'rmon mahsulotlarini yig'ish bo'lib, ularning ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 0,6 foizini tashkil qiladi.

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash




Baliq ovlash va akvakultura

Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo'limi faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, ularning fermer xo'jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 4,5 foizini tashkil etadi.



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Jizzax viloyatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan.





Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Baxmal (14,8 foiz), G'allaorol (14,8 foiz) va Zomin (13,0 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Baxmal t.	1 101
G'allaorol t.	1 100
Zomin t.	972
Sh.Rashidov t.	898
Zarbdor t.	755
Arnasoy t.	502
Zafarobod t.	436
Mirzacho'l t.	432
Do'stlik t.	412
Forish t.	340
Paxtakor t.	321
Yangiobod t.	151
Jizzax sh.	31



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 337,5 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	26
Arnasoy t.	6
G'allaorol t.	4
Sh.Rashidov t.	4
Zomin t.	4

Baxmal t.	3
Zafarobod t.	3
Forish t.	2
Zarbdor t.	1
Paxtakor t.	1

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 198 ta korxonalardan 90 tasi qo'shma korxonalar va 108 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	79
Forish t.	24
Sh.Rashidov t.	20
G'allaorol t.	13
Zomin t.	13
Arnasoy t.	10
Paxtakor t.	10

Yillar kesimida soni (birlikda)




Zafarobod t.	8
Baxmal t.	5
Do'stlik t.	5
Yangiobod t.	5
Zarbdor t.	3
Mirzacho'l t.	3

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,6 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 71 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 35,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 32,3 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 21,2 foiz), Buyuk Britaniya (ulushi 4,5 foiz) va AQSh (ulushi 2,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Jizzax shahriga - 39,9 foiz, tumanlar orasida esa Forish - 12,1 foiz, Sharof Rashidov - 10,1 foiz va Zominga - 6,6 foiz to'g'ri keladi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro’yxatga olingan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo’lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko’rsatayotgan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to’g’risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o’tish chora-tadbirlari to’g’risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo’limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- oktabr** holatiga ko’ra (fermer va dehqon xo’jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi
STATISTIKA AGENTLIGI

Orqaga qaytish

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Axborot beruvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan ma'lumot

ZK

Rasmdagi kodni kiriting

Qutqat

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi
2020 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

